

## IMPROVING THE AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN JOINT STOCK COMPANIES

Mirsaidov Islam Isomitdin ogli,  
Master of Tashkent State University  
islommirsaidov840@gmail.com

### ABSTRACT

Today, the main goal of business entities is to achieve a positive financial result, ie to maximize profits. The amount of profit is certainly not affected by the audit of financial results, so we can increase the efficiency of enterprises by improving the audit of financial results.

"In 2018, the annual net profit of the 10 largest companies in the world amounted to 312.3 billion US dollars." That's more than the gross domestic product of dozens of countries. Achieving these indicators depends directly on the effective organization of accounting and auditing of financial results in business entities. Proper accounting and auditing of financial results in business entities allows to obtain reliable information and make important management decisions. Determining the characteristics of the accounting and auditing of financial results of foreign partners operating in the international market, in them requires the application of international financial reporting and auditing standards. At present, the world is focusing on the organization of accounting and auditing of financial results in accordance with international standards.

Jahonning ko‘pgina davlatlari fond birjalarida aksiyalari joylashtirilgan kompaniyalardan mo‘liyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish talab etiladi. Moliyaviy natijalar xususi da axborotlarni shakllantirish va hisobotda olib berish “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish nomli 1-sonli BHXS, “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum” nomli 15 sonli MHXS asosida tartibga solinadi. Jalon mamlakatlarida moliyaviy natijalar hisobi va auditingini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish hozirgi globallashuv jarayonida mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Har bir aksiyadorlik jamiyatlarining bozorda o‘z faoliyatini olib borishning asosiy shartlaridan biri bu hisob-kitob va moliya intizomiga qatiy rioya qilish zarurdir. Aksiyadorlik jamiyatlari “O‘zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyati to‘g’risidagi qonunning 10-moddasiga binanan har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi kerak”. Tovar va xizmatlar oldi sotdisi bo‘yicha barcha hisob-kitoblar xar ikki tomon tasdiqlagan shartnomaga muvofiq belgilangan muddatlarda bajarilishi kerak. Majburiyatlarning buzilishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ishlab chiqarish rejasini bajarilmay qolishida hamda kreditorlik qarzlarining oshishiga, ularning moliyaviy ahvolining yomonlashuviga olib keldi.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga qaratilgan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda daromad va xarajatlarni tan olish, turli balans nazariyalarida moliyaviy natijalarini shakllantirish, buxgalteriya hisobida moliyaviy natjalarni turli konsepsiylar bo‘yich a aks ettirish, moliyaviy natijalar bo‘yicha buxgalteriya hisobi axborot ta’minotini takomillashtirish, moliyaviy natijalar auditida tahliliy amallarni qo‘llash, rentabellik ko‘rsatkichlarini tahsil qilishga keng e’tibor qaratilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida daromad va xaraj

atlarni tasniflash, yalpi daromad to‘g‘risida hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish, moliyavi y natijalar yuzasidan hisob axborotlarining ishonchlilagini oshirish, rentabellik ko‘rsatkichlar ini aniqlash, auditorlik tekshiruvlarida muhimlik va risk darajalarini qo‘llash, moliyaviy natijalar auditni sifatini oshirishni takomillashtirishga erishilgan. Lekin moliyaviy natijalar hisobi va auditini xalqaro standartlar talablari muvofiqlashtirish hamda shu asosida ularni metodo logik jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish bugungi kunning d olzarb laridan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy hisobotlarining shaffofligini ta’mi nplash, moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlar talablari asosida to‘g‘ri shaklla ntirish, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborotlarning ishonchlilagini tasdiqlash muhim hiso blanadi. Biroq moliyaviy hisobotlarning sifati va ularning auditorlik tekshiruvilaridan o‘tkazi lishi xalqaro standartlar talablari mos kelmaydi. Xususan, «auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume’tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to‘liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko‘nikma sining shakllanishini ta’milnamayapti» kabi muammolarning qayd etilishi moliyaviy natijalar hisobi va auditining metodologik muammolarini bartaraf etish, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborotlarni xalqaro standartlar talablari darajasida shakllantirishni taqozo qilmoqda.

Moliyaviy natijalar hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida yalpi daromad to‘g‘risida hisobotni tuzish va ta qdim qilish qoidalari ishlab chiqilgan (International Accounting Standards Board); MHXS tablariga muvofiq daromadlarni tan olish metodologiyasi tavsiya etilgan (Pricewaterhouse Coopers, Deloitte & Touche); buxgalteriya balansi va foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlari asosida rentabellik ko‘rsatkichlarini aniqlash metodologiyasi takomillashtirilgan (Rourtela National Institute of Technology); dialektik yondashuv asosida foydaning shakllanishi genezisi tadqiq etilgan (Kyushu University); moliyaviy natijalarini shakllantirishning Rossiya va kontinental modellari qiyosiy tahlil qilingan (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti), operatsion faoliyat bo‘yicha moliyaviy natijalar buxgalteriya hisobi axborot ta’motining tashkiliy-

uslubiy jihatlari takomillashtirilgan (Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti).

Jahonda moliyaviy natijalar hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslarini takomilla shtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yalpi daromad to‘g‘risida hisobot tuzishni takomillashtirish; moliyaviy natijalar xususida buxgalteriya hisobi axborotlari shakllanishining metodologik masalalari; moliyaviy natijalar auditida muhimlik va risk darajalarini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish, moliyaviy natijalar auditni sifatini oshirishning metodologik masalalari.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborotlarni shakllantirish barcha foydalanuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobi nazariyasiga e’tibor qaratsak, moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini shakllantirishda 3 ta asosiy nazariya mavjud ekanligiga guvoh bo‘lamiz: statik, dinamik va organik nazariya. Statik nazariyaning asosiy maqsadi mulk qiymati va moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini aniqlash bo‘lsa, dinamik nazariyada asosiy e’tibor rentabellilik ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratiladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan statik va dinamik nazariyalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida organik balans nazariyasi shaklla

ngan. Ushbu nazariya statik va dinamik balans nazariyalari talablarini imkon qadar uyg‘unlashtirgan. Organik nazariyada axborotlar ham ichki, ham tashqi foydalanuvchilar uchun mo‘lja llangan bo‘lib, ushbu nazariyaning maqsadi ham moliyaviy natijalarni, ham mulkiy holatni b irgalikda aniqlash hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni tak omillashtirish bo‘yicha xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular juml asiga X.Anderson, E.A.Arens, Ch.H.Gibson, O.I.Gusarova, B.T.Jarilgasova, D.Kolduell, A.I.Nechitaylo, B.Nidlz, Dj.K.Lobbek, V.F.Paliy, Ya.V.Sokolov Dr.M.Tulsian va A.D.Sheremet ni kiritish mumkin .

Respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan bu masalalar yaratilayotgan darslik, monografi ya va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, e’lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda moliyaviy natijalar hisobi va auditining nazariy jihatlari o‘rganilgan. Masalan, A.I.Aliqulov, R.D.Du smuratov, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, N.F.Karimov, Z.T.Mamatov, A.X.Pardayev, M.Q. Pardayev, B.A.Xasanov, K.B.O‘razov, Z.N.Qurbanov, B.Q.Hamdamovning asarlarida moliyaviy natijalarni hisobga olish va auditining nazariy jihatlarini rivojlantirish muammolari o‘rganilgan .

Respublikamizda moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirishga hissa qo‘sghan oli mlardan, X.D.Axmedov, Z.F.Ivatov, A.R.Muxamedxodjayev, M.Yu.Rahimov, Sh.A.Tojiboyeva, Sh.U.Xaydarov, A.S.Shamshetovning monografiya, o‘quv qo‘llanma va ilmiy maqolalar da moliyaviy natjalarning ilmiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratildi .

Ta’kidlash zarurki, yuqoridaq iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan moliyaviy natijalar hisobi va auditining metodologik muammolarini o‘rganishga keng e’tibor qaratilmagan hamda amaldagi me’yoriy hujjatlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitiga muvofiq o‘zgarib borishi u sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda aksiyadorlik jamiyatlarida xisob kitoblarni to’g’ri olib borish qolaversa sifatli auditorlik tekshiruvini tashkil etishni ta’minlashimiz kerak.Bu esa o‘z navbatida moliyaviy natijalar auditini takomillashtirishni taqoza qiladi.Audit o’tqazishdn maqsadlardan biri bu korxonaning faoliyatni kengaytirish va samardorligini oshirishdan ibotadur.Shaxsiy fikrim sifatida shuni aytib o’tmoqchimanki o‘z milliy standartlarimizni xalqaro standartlarga keng ko’lamda o’tqazish va moliyaviy natijalar auditni takomillashtirish orqali korxona samaradorligini oshishiga erishishimiz mumkin.